

Ashurov Nurbek Oybek o‘g‘li
TDTUOF “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi
Ingliz tili o ‘qituvchisi
shinelord.91@gmail.com

TURIZM SOHASIGA OID TERMINLARNI O‘QITISHDA MILLIY VA XORIJIV TAJRIBA

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasiga oid terminlarni o‘qitishda milliy va xorijiy tajribalarning ahamiyati, xorijiy tajribalardan asos olingan holda milliy tajribarni darajasini oshirishga qaratilgan ko‘p salmoqli ishlar amaliyotga oshirilayotganligi yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: MICE-turizm, kompensatsiya, baxshichilik san’ati, sayyoh, byudjet, funksional-semantic, leksik-semantic

Sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish, Sayyohlar sonining keskin o‘sishi natijasida yuzaga kelgan talabni qondirish maqsadida davlat tomonidan joylashtirish maskanlarini ko‘paytirish bo‘yicha komplek schora-tadbirlar amalga oshirildi.

Birinchidan, hamyonbop joylashtirish maskanlari turiga mansub xostellar faoliyatini tartibga soluvchi 22 turdag'i ortiqcha talablar bekor qilindi. Shuningdek, xostellar tomonidan ko‘rsatiladigan mehmonxona xizmatlarini majburiy tarzda sertifikatsiyalash tartibi bekor qilinib, mehmon uylari va xostellar yagona reyestridan ro‘yhatdan o‘tib ish faoliyatini olib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Ikkinchidan, mamlakatda kichik turdag'i mehmonxonalar sonini ko‘paytirish maqsadida Janubiy Koreya va Turkiya tajribasiga asoslangan 50 nomergacha bo‘lgan kichik mehmonxonalarning 8 turdag'i namunaviy loyihalari tadbirkorlarga bepul taqdim etildi. Hisob-kitob qilib ko‘rilganda, tarqatilgan loyihalarning umumiy qiymati 60 mlrd. so‘mdan oshiqni tashkil etadi.

Uchinchidan, turizm sohasiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida, davlat xususiy sherikchilik shartlari asosida mehmonxonalar qurishga qator imtiyozlar joriy qilindi. Bunga ko‘ra, qurilgan 3 yulduzli mehmonxonalarning har bir xonasi uchun davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga 30 mln., 4 yulduzli mehmonxonalar uchun 40 mln. so‘m kompensatsiya ajratish berish belgilandi. Shu bilan birga, jahonga mashhur mehmonxona brenlarini jalb qilgan mehmonxonalarning royalti xarajatlarini qisman kompensatsiya qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Bunga ko‘ra, 3 yulduzli mehmonxonalarning har bir xonasi uchun 200 AQSh doll., 4 yulduzli mehmonxonalar uchun 400 dollar ajratiladi.

Natijada, joylashtirish vositalarining soni keskin ko‘paydi. Xususan, 2016-2020 yillar oralig‘ida ularning soni 750 tadan 1308 taga, mavjud o‘rinlar soni esa 34 mingdan 62 mingga oshdi. Shuningdek, 2018-2020 yillar davomida mehmon uylarining soni 13 barobarga oshib, 1386 taga yetdi.

Sayyohlik xizmatlari tarkibini kengaytirish.

MICE-turizm. Jahon Sayyohlik Tashkilotining hisob-kitoblariga ko‘ra, ish tufayli safar qilayotgan sayyoh safari davomida dam olish maqsadidagi sayyohga qaraganda 3-4 barobar ko‘proq sarf xarajat qiladi. Bundan tashqari, dam olish turizmi mavsumiy xarakterga ega bo‘lsa, ish turizmi yil davomida daromad keltirish imkoniyati mavjud.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm xizmatlari tarkibini diversifikasiya qilish va turizmning yangi turlarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar olib borildi. Xususan, MICE turizm ya’ni, O‘zbekistonda turli uchrashuv, konferensiya va ko‘rgazmalarni tashkil etish orqali sayyohlar oqimini ko‘paytirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xorazmda an'anaviy tarzda o'tkaziladigan "Bahodirlar o'yini" sport turniri, Surxondaryoda "Baxshichilik san'ati" festivali, Qoraqalpog'istonda "Mo'ynoq-2019" avtoralli musobaqlari tashkil etildi. Shuning uchun, O'zbekiston MICE-turizmni rivojlantirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib tasdiqlandi.

XIX asrga kelib fizikadagi maydon nazariyasi ta'sirida tilshunoslikda ham "maydon" tushunchasining nazariy talqini yuzaga keldi. Maydon nazariyasinining tilshunoslikda paydo bo'lishi va mustahkamlanishi Y.Trir, L.Veysberger, V.Porsig, G.Ipsen, L.Yolles, F.Dornzeyf, V.Vartburg kabi olimlar nomi bilan bog'liq. Ular semantik maydon asosida til birliklarini tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqqan edilar. Keyinchalik esa bu nazariya A.A.Ufimseva, G.S.Shchur, N.I.Filichyova, Y.N.Karaulov, kabi rus olimlarining ishlarida yanada kengroq rivojlantirildi. G.S.Shchurning ta'kidlashicha, tilshunoslikda "maydon" tushunchasi ishtirok etgan terminlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin bo'ladi: funksional-semantik maydon, morfemik maydon, fonetik maydon, so'z yasash maydoni, leksik maydon, mikromaydon, ko'plik maydoni, nisbat maydoni, vaqt maydoni, komparativ maydon, birlik maydoni, harakat maydoni, o'rinn maydoni, kvaziomaydon, inkor maydoni, transformatsion maydon, faoliyat maydoni, holat maydoni kabilar.¹

Til leksik sistemasi muayyan butunlik sanalib, u o'z ichida ma'lum mazmun umumiyligi ostida birlashgan "mavzuiy to'da"lardan tashkil topadi. Har qaysi mavzuiy to'da o'z ichida qator leksik-semantik guruhlarni birlashtiradi.

Ma'lum bir belgi asosida bir leksik-semantik guruhga birlashgan har qaysi guruh a'zosida mazkur guruhga birlashish uchun asos bo'lgan sema takrorlanishi zarur. O'z navbatida, til sistemasi tarkibidagi leksik-semantik guruhlar yana ma'lum leksik qatorlardan iborat bo'ladi. Bir leksik qatorni tashkil etgan leksemalarda ham muayyan umumiyligi belgi – birlashtiruvchi (integral) sema bo'lishi va bu qatorlar tarkibidagi leksemalar bir-biridan o'zaro farqlanuvchi (differensial) semalari bilan ajratilishi zarur.

Terminlar ham maxsus leksik birlik sifatida leksik-semantik jihatdan tasniflanadi. Jumladan, o'zbek tili turistik terminlari dastlab mazmun-mohiyatiga, vazifasiga, keng qamrovligiga ko'ra bir necha mavzuiy guruhlarga bo'linadi. Bu mavzuiy guruhlar o'z ichida yana leksik-semantik guruhlarga ajraladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Aliyeva M. Dizaynerlik terminlarida semantic maydon // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2017. – №1. – В.107. Шчур Г.С. Теория поля в лингвистике. – Москва: Наука, 1974. – С.19-21.
2. Иванова Г.А. Синонимы в терминологической системе метаязыка лингвистики / Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. – 2011.
3. Pardayev Q. Ekologik turizm asoslari. – Toshkent: Navro'z, 2015.
4. Mamatqulov M., Bektemirov B va boshqalar. Xalqaro turizm. – Toshkent, 2009.